

## BAXSHICHILIK SAN`ATINING RIVOJLANISHI

*Nasiba Xo`janova*

*Respublika Baxshichilik sa`nati  
markazining kichik ilmiy xodimi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada baxshichilik san`atining tarixi , ushbu atamaning kelib chiqishi haqida fikrlar bayon qilingan. Bundan tashqari , dostonchilik maktablari faoliyati , ularning bir- biridan farqlari haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** Do`mbira, shaman, folklor, dostonchilik maktabi, kotib, madaniy meros.

Bugungi kunda yurtimizda ma`naviy qadriyatlarni boyitish , yoshlar ongiga vatanparvarlik tuyg`ularini shakllantirishda baxshichilik san`atining o`rni beqiyos. Prezidentimiz ta`biri bilan aytganda “ Baxshilar nafaqat xalq o`tmishining aks –sadosi , ayni paytda bugungi kunning ham jarangdor ovozidir” . Baxshichilik uzoq o`tmishga borib taqaladi.

Dastlab bundan ikki ming yil avval doston ijrochilariga nisbatan –“baxshi” atamasi qo`llanilgan. Bu atama turli davrlarda kohin , qalandar , folbin, kotib, ustod , ma`rifatchi nomlari bilan atalib kelingan . Ko`pchilik turkiy xalqlarda baxshi atamasi xalq tabobati bilan shug`ullanuvchi shaman , po`rxon ma`nolarida kelgan . Baxshi – bu terma , qo`shiq va dostonlarni saqlovchi , yoddan aytuvchi avloddan- avlodga yetkazuvchi san`atkordir. Professor” Abdurauf Fitrat ta`rificha : “Turk musiqasining bizda qolg`on eng burung`i baxshi , o`zan , qo`biz kabi so`zlaridur . Baxshi so`zining burung`i ma`nosi el shoiri , cholg`uvchisidir . El orasinda qo`biz va do`mbira chalib dostonlar o`qub yurgan kishilar shoir , cholg`uchilar bor , biz shularg`a baxshi deymiz . Holbuki , Navoiy zamonida bu so`z uyg`urcha yozg`on kotib ma`nosida ishlatilar edi “ . Alisher Navoiy esa o`zining “ Munshaot” asarida quyidagicha yozadi : “ Bir sabohdin tush vaqtig`icha va peshindin oqshomgacha ancha ish qilurlarkim , necha devon , necha navisanda baxshi va necha parvonachi qila olmagaylar “ deb yozib qoldirilganki , bu yerda baxshi kotib , mirzo ma`nolarida ham qo`llangan . Baxshining shirali ovozi , do`mbirasidan taralayotgan yoqimli kuy kishini beixtiyor sehrlab qo`yadi. Boshqa san`at vakillaridan baxshi xalq tilining turli shakllari , so`z o`yinlari va qochirimlaridan , xalq maqollari va iboralaridan unumli foydalana olishi bilan farqlanadi . Buning uchun baxshidan tabiiy is`tedod , kuchli xotira talab qilanadi. Baxshilar ijrochi va ijodkor baxshilarga bo`linadi . Ijrochi baxshilar ustozdan o`rgangan dostonlarni juz`iy o`zgarishlar bilan aynan kuylaydilar , ijodkor baxshilar esa og`zaki epik an`ana asosida dostonning o`z variantlari , ular asosida yangi dostonlar ham yaratadi . Bunday baxshilarni “shoir” deb atashgan . Qadimdan ko`pgina baxshi –

shoirilar ustozlaridan o`rgangan terma va dostonlarini xotirada saqlab , bilimi hamda dunyoqarashida sayqallashtirib badihago`ylik mahoratlarini namoyish etganlar . O`z mahoratlarini shakllantirish uchun baxshilar tinimsiz izlanib , bilim va ko`nikmalarini mukammallashtirganlar . Bunday ijodkorlar doston va qo`shiqlarni do`mbira , qo`biz, dutor kabi sozlar bilan kuylaydilar .

Baxshichilik san`atida ustoz –shogirdlik an`analari , ularning doston ijro etish yo`llaridagi farqliligi bilan nazariy jihatdan “ dostonchilik maktabi “ atamasini yuzaga keltiradi . O`zbek folklorshunosligida Bulung`ir , Narpay , Qo`rg`on , Xorazm , Shaxrisabz , Sherobod kabi yirik dostonchilik maktablari bor . Bu dostonchilik maktablari uslubi va ijro usuliga ko`ra bir – biridan ajralib turadi . Masalan: voha baxshichilik maktablarining ijrolari do`mbira jo`rligida bo`g`iq ya`ni yopiq ovozda qo`shiqni, ochiq ovozda esa dostonga ta`rif berish orqali havola etiladi. Vohaning o`ziga xos maktablaridan biri Sherobod dostonchilik maktabidir. Ushbu dostonchilik maktabining asoschisi Sherna nomi bilan mashhur bo`lgan Shernazar Bernazar o`g`lidir. Aytishlaricha, u to`rt yoshidan termalar kuylagan. Hozirda Sherobod dostonchilik maktabi baxshilari soni 150 dan oshadi. Bu maktab vakillari boshqa dostonchilik maktabi vakillaridan do`mbirani ko`p va xilma-xil ohanglarda ijro etishi ajralib turadi. Sherobod baxshilari kuylagan dostonlarda qadimgi asoslar , xalqning etnik urf odatlari ko`proq ko`zga tashlanadi. Sherobod dostonchilik maktabiga birlashgan baxshi-shoirilar: “Alpomish”,”Hasanxon” “Nurali”,”Yunus pari”, “Misqol pari”kabi dostonlarni alohida mahorat bilan ijro etishgan.Sherobod dostonchilik maktabi vakillari repertuarlaridagi “Oltin qovoq”,”Malla savdogar”, “Ollanazar Olchinbek”, “Toshbosar”, “Xurso`na” dostonlari boshqa joydagi baxshilar repertuarida uchramaydi. Baxshichilik san`atini rivojlantirishga hissa qo`shayotgan atoqli baxshi – shoirilar bugungi kunda ham bu o`lmas san`atning bardavom bo`lishida o`z hissasini qo`shmoqdalar. Bu haqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev : “Xalq og`zaki ijodiyotining eng qadimgi turlaridan bo`lgan baxshichilik san`ati yuksak gumanizm g`oyalarini , tinchlik va do`stlik ,adolat va haqiqat kabi ezgu fazilatlarni mahorat bilan tarannum etadi. Shu bois ham , baxshi,oqin va jirovlar azaldan xalq qalbining kuychilari , turli millat va elatlarni birlashtiradigan olijanob insonlar sifatida ardoqlab kelinadi. Men xalq ijodiyotini insoniyatning bolalik qo`shig`i, har qaysi milliy madaniyatning hayotbaxsh chashmasi deb bilaman. Bu qo`shiqlarni sof va bezavol holatda saqlash, hamisha mag`rur yangrashini ta`minlash barchamizning nafaqat vazifamiz , balki muqaddas burchimizdir “-deya ta`kidlab o`tgani ham bejiz emas.

Bugungi kunda yurtimizda o`zbek milliy baxshichilik va dostonchilik san`atining noyob namunalarini asrab-avaylash, rivojlantirish, keng targ`ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san`at turiga hurmat-e`tibor tuyg`ularini kuchaytirishga alohida e`tibor qaratilmoqda. Bu borada O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “Baxshichilik san`atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi

qarori alohida ahamiyatga ega. Ushbu qarorga muvofiq Termiz shahrida Respublika baxshichilik san`ati markazi va uning huzuridagi Baxshichilik san`atini rivojlantirish jamg`armasi tashkil etildi. Bu baxshichilik san`atini saqlash, uni asrab-avaylash va rivojlantirish hamda shu yo`nalishda iqtidori bor qo`llab-quvvatlashga xizmat qilib kelmoqda. Markazning asosiy vazifalaridan biri etib sohada shakllangan ijodiy maktablarning o`ziga xos ijro uslublari, "ustoz-shogird" an`analarini qayta tiklash va rivojlantirish, madaniyat markazlari , bolalar musiqa va san`at maktablari va boshqa ta`lim muassasalari qoshida baxshichilik san`ati to`garaklarini tashkil etish deb belgilandiki, bular yosh avlodni milliy qadriyatimizga sodiq ruhda tarbiyalashda, ezgulik egalari, vatanparvar, adolatli, mard, jasur yigit-qizlarni tarbiyalashda ulkan hissa qo`shadi. 2019-yilda ilk bora Surxondaryo viloyatida "Xalqaro baxshichilik san`ati" bo`lib o`tdi. Bundan tashqari, 2021-yilda Baxshichilik san`ati YUNESKOning insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro`yxatiga kiritilishi katta voqea bo`ldi. Bugungi kunda baxshichilik san`ati an`analari xalqaro darajada e`zoz topdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Omonulla Madayey .O`zbek xalq og`zaki ijodi . Toshkent- " Mumtoz So`z" 2020.
2. Shomirza Turdimov. Etnos va epos.Toshkent- "O`zbekiston"2012
3. Mamatqul Jo`rayev Manzura Narziqulova . Mif , Folklor va abiyot.Toshkent-2006